



KOKAND AS A CENTER OF CRAFTSMANSHIP: A HISTORICAL PERSPECTIVE (1709–1876)

Nargiza Karimova

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Science

Jizzakh State Pedagogical University

nargiz_82_88@mail.ru

Jizzakh, Uzbekiston

Ziyodakhon Turgunboyeva

Master's Degree Student

Jizzakh State Pedagogical University

ziyodaxonturgunboyeva0@gmail.com

Jizzakh, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Shohrukhbiy, 1709, Erdonabiy, Norbotabiy, Alim Khan, Umar Khan, Russia, 1876, tax, Kokand, Bukhara, 18th century, Khudoyor Khan's Palace, Orenburg, pud, dirham, dinar.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article discusses the history of the Kokand Khanate, which was the last of the Central Asian khanates to be established and was later abolished as a khanate as a result of the invasion by the Tsarist government, after which it was reorganized as a new province. The article covers the main spheres of the state such as agriculture, handicrafts—including the specialization of cities in particular crafts—and trade and commerce, as well as the activities and reigns of its rulers.

QO'QON HUNARMANDCHILIK MARKAZI SIFATIDA: TARIXIY NUQTAI NAZAR (1709–1876)

Nargiza Karimova

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

Jizzax davlat pedagogika universiteti

nargiz_82_88@mail.ru

Jizzax, O'zbekiston

Ziyodaxon Turg'unboyeva

Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

ziyodaxonturgunboyeva0@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Oʻrta Osiyo, Shohruxbiy, 1709-yil, Erdoʻnabiy, Norboʻtabiy, Olimxon, Umarxon, Rossiya, 1876-yil, soliq, Qoʻqon, Buxoro, XVIII asr, Xudoyorxon Oʻrdasi, Orenburg, pud, dirxam, dinor.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oʻrta Osiyo xonliklari ichida eng kech tashkil topgan hamda podsho hukumati bosqini natijasida xonlik sifatida tugatilib, oʻrniga yangi viloyat sifatida tashkil topgan Qoʻqon xonligi tarixi haqida, uning qishloq xoʻjaligi, hunarmandchiligi, jumladan, shaharlarning biron-bir hunar turiga iqtisoslashuvi hamda savdo-sotiq kabi davlatning asosiy sohalari, hukmdorlarning faoliyati, humkronligi haqida soʻz boradi.

КОКАНД КАК ЦЕНТР РЕМЕСЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА: ИСТОРИЧЕСКАЯ ПЕРСПЕКТИВА (1709–1876)

Наргиза Каримова

доктор философии (PhD) по историческим наукам

Джизакский государственный педагогический университет

nargiz_82_88@mail.ru

Джизак, Узбекистан

Зиёдахон Тургунбоева

магистрант

Джизакский государственный педагогический университет

ziyodaxonturgunboyeva0@gmail.com

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Шохрухбий, 1709, Эрдонабий, Норботабий, Алим-хан, Умар-хан, Россия, 1876, налог, Коканд, Бухара, XVIII век, дворец Худояр-хана, Оренбург, pud, дирхам, динар.

Аннотация: В данной статье рассматривается история Кокандского ханства, которое стало последним из среднеазиатских ханств, образованных в регионе, и впоследствии было упразднено в результате завоевания царским правительством России, после чего было преобразовано в новую область. В статье освещаются основные сферы жизни государства, такие как сельское хозяйство, ремесленное производство (включая специализацию городов по отдельным видам ремёсел), торговля и коммерция, а также деятельность и периоды правления его правителей.

Kirish. Maʼlumki, Oʻrta Osiyo xonliklari ichida eng yoshi Qoʻqon xonligi boʻlib, 1709 - 1876- yillar oraligʻida faoliyat koʻrsatgan. Dastlab Buxoro xonligi tarkibida boʻlib, xonlik

zaiflashgach, ming urug`i boshlig` Shohruhbiy boshchiligida Qo`qon xonligiga asos solinadi. Lekin Rossiya imperiyasining istilosi natijasida xonlik sifatida faoliyatiga chek qo`yiladi. Garchi, Qo`qon xonligi Buxoro hamda Xiva xonliklariga nisbatan, mustaqil xonlik sifatida kam faoliyat ko`rsatgan bo`lsada, xonlik hududida hunarmandchilik, savdo-sotiq kabi sohalar keng taraqqiy etgan edi. Xonlikda hunarmandchilikning asosiy yo`nalishlaridan biri xomashyosi paxta bo`lgan - to`qimachilik edi. Ipak matolar ham ishlab chiqarilgan bo`lib, chet davlatlarga xususan Rossiyaga sotilgan. Hunarmandlar tayyorlagan atlas ham mashhur bo`lib, Marg`ilonda maskur mato ``atlas``, `` jiba arqoq`` deb nomlangan. Kulolchilik ham rivojlangan bo`lib, xonlikda Rishton shahri eng sifatli xaridorgir mahsulot ishlab chiqargan. Qo`qon, Namangan, Toshkent, Xo`jand shaharlari metallga ishlov berish markazlari edi. Chust, Shahrixon, Qo`qon, Poytug` va Qorasuv shahrlarida metal buyumlar asosan pichoq ishlab chiqarilgan. Qo`qon, Toshkent, Namangan, Marg`ilonda aravalar tayyorlangan. Masku aravalar 25-40-pudgacha (1 pud – 16 kg) yuk ko`tara olib, ``Qo`qon arava`` nomi bilan O`rta Osiyoga tanilgan.

Zargarlik buyumlarini tayyorlashda Qo`qon ajralib turgan bo`lib, O`rta Osiyoda faqat Buxoro raqobatlasha olgan. Xonlikda sovun ishlab chiqarilgan bo`lib, ichki va tashqi savdoda talab katta bo`lgan. Xonlik aholisining sovunga bo`lgan ehtiyojini qondira olgan. XVIII asrda 2 ta qog`oz ishlab chiqarish korxonasi bo`lib, biri `` Mo`yi Muborak`` darvozasi yaqinida, ikkinchisi Chorku qishlog`ida joylashgan. Turli xil o`simliklardan bo`yoqlar ham olish yo`lga qo`yilgan. Bundan tashqari porox, miltiqlar, zambarak, qilich, qalqon, xanjar, nayzalar ham ishlab chiqarish yo`lga qo`yilgan. Ijtimoiy holatiga ko`ra, hunarmandlar yuqori va quyi tabaqalarga bo`lingan. Yuqori tabaqa vakillariga o`z ustaxonasi, mehnat qurollari, xom ashyosi ega bo`lgan ustalar kirgan bo`lsa, boylar qo`l ostidagi ustaxonalar va xom ashyodan foydalanib, yuqori tabaqalar qo`l ostida kunbay yo`llanib ishlovchilar quyi tabaqa hisoblangan. Mamlakat g`arb va janubda Buxoro, Xiva Afg`oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy, shimolda Dashti Qipchoq ko`chmanchilari, Rossiya bilan keng savdo aloqalarini o`rnatgan. Chet eldan choy, metal, chinni, uy- ro`zg`or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim – kechak, poyabzal, kabi mahsulotlar keltirilgan. Qo`qonlik savdogarlar Buxoroga rus temiri, po`lat, cho`yandan yasalgan buyumlar, tamaki, ro`mol, guruch, xitoy va mahalliy ipak matolar, choy va chinni idishga o`xshash tovarlarni olib borishgan. Buxoro savdogarlari esa Qo`qonga hind choyi, surp matolar, harir, buyoq, afyun, zardo`zlik mahsulotlari, ip va gazlama olib kelishgan. Rus chiti Buxoroning Qo`qon xonligi bilan savdoda alohida ahamiyatga ega edi. Bu mato Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo`jand orqali Qo`qonga olib kelingan. Qozoq juzlarini Rossiyaga mustamlaka bo`lishi, O`rta Osiyoning jumladan, Qo`qon xonligining Sibir, Ural, Volgabo`yi bilan savdo qilish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Rossiyadan Qo`qonga temis, mis, po`lat, cho`yan, temir buyumlar, charm, shaker, oynalar, chit va sifatsiz gazlamalar, Rossiyaga qozoq cho`llaridan

charm, qo'ylar va terisi, kigiz sotilgan. Davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri bu soliq tizimidir. Soliq tushunchasi – davlatning paydo bo'lishi va faoliyatining davomiyligi bilan belgilanuvchi iqtisodiy kategoriyadir. Soliq tizimi - davlatda soliq va yig'implarni undirilishi bilan shakllangan, davlatning huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi nazarda tutiladi. Qo'qon xonligidagi soliq va majburiyatlar haqida ma'lumot berishdan oldin, soliq tizimi tarixi, bunday atama qachon kirib kelganligi, haqida so'z yuritsak. Soliq tizimi davlatchilik tarixida davlat paydo bo'lgan davrdan davlatning iqtisodiy hayotini tartibga solish uchun shakllangan. Hozirgi kunda taraqqiy etgan Yevropa davlatlaridan avvalroq soliq tizimi Amir Temur va temuriylar davlatida adolatparvarlik tamoyili barpo etilganligi dunyo bo'ylab soliq nazariyasi joriy etishiga turtki bo'lgan. Yevropalik olimlardan Adam Smit soliq tizimi tushunchasi yaratildi va 1776-yilda `` Millatlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish`` kitobida e`lon qilingan. Smitning nazariyasi XIV asrdagi Anir Temur tomonidan yozib qoldirilgan `` Temur tuzuklari`` kiobida keltirilgan fikrlar bilan bir xil edi. Soliq tizimining bosh amaldori xon hisoblangan va undan keyingi o'rinda viloyat hokimlari – beklar turgan. Soliq yig`ishga ma`sul bo'lganlar sarkorlar deb nomlanib, ba`zan beklardan ham ustun turgan. Oqsoqol lavozimi ham soliq tizimida yuqori lavozim hisoblanmasa ham o'ziga xos o'ringa ega edi. SH. Qo'ldoshevning ``Qo'qon xonligi va Xitoy o'rtasidagi diplomatik loqalar`` kitobida keltirishicha, oqsoqollar xonlik hududidan Qoshg`arga borib yashashgan va o'sha yerda savdo bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlarni nazorat qilishgan hamda savdo bojini xonlik xazinasiga kelib tushishini ta'minlagan. Rossiya imperiyasiga mustamlaka davrlarda ham oqsoqollaro'z mavqeyini yo'qotish-magan. Hozirgi kunga qadar Marg`ilon uyezdida oqsoqollarni vazifasiga tayinla-nishi to'g`risidagi ma'lumotning saqlanib qolinishi fikrimiz isbotidir. Mehtar xonlikda tanga pullarni zarb etishni nazorat qilgan. Namangan, Andijon, Marg`ilon va boshqa shaharlarda zarbxonalar bo'lib, oltin, kumush tangalar zarb etilgan hamda mis tangalar ham muomalada bo'lgan. Savdoda mahalliy tangalar bilan birga Buxoro, Xiva, Rossiya tangalaridan ham foydalanilgan. Qo'qon xonligi tarixini o'rgangan tarixchi olim X. Bobobekov xonlikda rasmiy va maxsus soliqlar bo'lganligini qayd etgan. Xonlik hududida A.L. Kunning ma'lumotiga ko'ra 30 dan ortiq, A.A. Semyonov ma'lumotiga ko'ra 32 turdagi soliqlar mavjud bo'lgan. Xonlik soliq tizimi to'g`risidagi A. Juvonmardievning tadqiqotiga ko'ra, XVI-XVII asrlarda Farg`onada 90 ta jarima va soliqlar mavjud bo'lgan. Zakot, xiroj, tanob, tanabona, qal`a, qoraqo'noq, tircho'p, qutvoliy, begor, hasher, zaxira, tarx, sobun, molujihat, yasoq, o'lpon, go'za puli, ko'knor puli, pilla, savsan, shukurchi, dorug`a, boj, taklifoti mulk, chodir puli, ulufa, alaf, urg`u, mol, chiroqchi, naqibona, muxasssali mol kabi soliq va majburiyatlar shular jumlasidandir.

Chustlik do'ppido'z hamda pichoqchi ustalar, Rishronlik kulollar, Marg'i- lonlik ipakchilar o'z tovarlarini qo'shni xonliklarga hamda Rosssiya, Qoshg'ar kabi boshqa davlatlarga sotishganlar. Albatta, xonlikda hunarmandchilik va savdoni yuksalishiga xonlikning taxtini boshqargan xonlarning ham roli beqiyosdir.

Jumladan, Qo'qonning birinchi xoni Shohruhbiy (1709-1721) – davridansavdo-sotiqni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Uning davrida Qo'qonda zarbxona ishga tushirilib, kumush va mis pullar zarb etilgan. Norbo'ta-biy (1753-1798) hukmronligi davrida zarbxonalar soni ko'paygan hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'p yetishtirilishi; bozorlarda narxlarning tushishi, xalqning dasturxoni to'kin- sochin bo'lishiga sabab bo'lgan. Olimxon davrida esa ``dinor`` nomli tangalar zarb qilina boshlangan. Umarxon (1810-1822) davrida ya'ni 1811-yilda Rossiya vakillari Qo'qon xonligi bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida Toshkent orqali xonlik markaziga kelishgan. Ko'p o'tmay, Qo'qon xoni Shakurbek otaliq boshchiligida elchilarni Peterburgga jo'natadi. Elchilarning maqsadi Rossiya shaharlarida qo'qonlik savdogarlarni erkin savdo qilishlari va ularning xavfsizligiga erishish edi.

Umarxon hukmronligi davrida ya'ni 1817-yilda pul islohoti o'tazib, ``dirxam`` nomli kumush va tilla tangalar zarb ettirgan. Uning o'g'li Muhammadalixon (1822-1842) davrida ham iqtisodiy hayot barqaror bo'lgan lekin iqtisodiyotda o'zgarishlar bo'lmagan. Lekin Xudoyorxon davrida (1845-1876) kumush tangalarni qiymati tusha boshlagach, muomalada mis tangalar ko'paygan, podsho Rossiyaning iqtisodiy bosimi ortishi natijasida Qo'qon tangalarining qadri tushib savdo- sotiqda rubl asosiy pul birligi sifatida ishlatila boshlangan. 1876-yilda xonlik tugatilishi bilan mahalliy tangalar muomaladan surib chiqarilib, rubl joriy etilgan. Garchi Xudoyorxon davrida xonlik siyosiy hamda iqtisodiy mustaqilligini yo'qotishi boshlangan bo'lsada, xon davlatning tayanchi hisoblangan iqtisodiy hayotni ya'ni savdo-sotiqni rivojlantirish uchun katta mablag'lar ajratgan. Xususan, hozirgi kunga qadar muzey sifatida sayyohlar e'tibor markazida bo'lib, Qo'qon shahrining ramziy timsoliga aylangan Xudoyorxon O'rdasi aynan Xudoyorxon davrida (1865-1873-yillarda) qurilgan. Dastlab, 3ta qism va 114 xonadan tashkil topgan bo'lib, hozirgacha faqat 19 ta xonasi saqlanib qolgan. Saroy qurilishida Qo'qon va Buxoroning eng yaxshi ustalari qatnashgan. Me'morboshi – Mir Ubaydulloh edi. 100 dan ortiq xonasi bo'lib; qal'a, davlatxona, haram, shahnishin, xo'jalik va ma'naviy bo'limlardan iborat bo'lib, davlatning bosh qarorgohi vazifasini ham bajargan.

Podsho hukumati tomonidan xonlik bosib olingach, saroyning 2-hayoti boshlanadi. Garnizonga aylantiriladi va bir qismi buziladi. Hujralarda - mustamlakachilarning oilalari uchun xonadonlar maktab hamda cherkov tashkil qilinadi. Sovetlar hokimiyatga kelganidan so'ng esa Qashshoqlar qo'mitasi va Qo'shchi sayuzi(1925-yidan) idorasi tashkil qilinadi. 1925-yildan o'rda hududida muzey tashkil qilinadi. 1959-yilda Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyi nomi

berilgunga qadar turli nomlarda faoliyat ko'rsatagan. Bundan tashqari uning davrida `` Madrasai Oliy``, ``Madrasai Hokim oyim``, ``Madrasai Sulton Murodbek``kabi inshootlar qurilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Qo'qon xonligi umuman Qo'qon shahri qadimdan hozirgi kunga qadar savdo-sotiqning asosiy markazlari sifatida dong taratgan. Buning asosiy sabablari - shaharning geosiyosiy jihatdan qulay joylashuvi hamda hukmdorlarning qarorlari va qo'qonlik hunarmand, ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, tadbirkorlarning say-harakatlari natijasidir. Dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan Buyuk ipak yo'lining bu shahardan o'tishi ham shular jumlasidandir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchilik tarixi. Toshkent : Sharq. 2001. - B 121.
2. Бобобеков Х. Кукон тарихи. - Б. 126.
3. Жуванмардиев А. XVI - XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Б. 33-35.
4. Мадрахимов З. Кукон хонлигида савдо муносабатлари. Тошкент. Ўанги нашр. 2014. – Б. 59.
5. Manazarov A. Soliq siyosati. – Toshkent: Moliya, 2003. – B.32.
6. Mirzaolim Mushrif. Qo'qon tarixi. Toshkent : G`G`ulom. 1995. - B 12.
7. Qo'ldoshev SH. Qo'qon xonligi va Xitoy (Chin imperiyasi)o'rtasudagi diplomatik aloqalar. – B. 152-164.
8. Qo'ziqulov I. Qo'qon xonligi tarixi. Namangan. 2014. – B.48
9. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – Toshkent iqtisodiyot – moliya, 2019. – B.6
10. G`ayrat Ziyayev. Qo'qon xonligida hunarmandchilik taraqqiyoti. 2025. – B 13.
11. G`aniyev Hojiakbar, Abdullayev Ravshanjon. Xudoyorxon O'rdasi : sarpydan muzeygacha bo'lgan yo'l. Science Shine international scientific journal. Issue 15(50), Volume 1. 2025. – B.15.
12. Кокон давлат музей-корикхонаси туплами. – Тошкент. Silk Road Media.2022 - .36.
13. Xudoyorxon saroyi <https://share.google/qzYPkMdMtlVLbt7Jj>